

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARНИ TARBIYALASHDA
OILA BILAN HAMKORLIK SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdurahimova Farog'at Shermatovna

Surxondaryo viloyati Uzun tumani 21-DMTT kichik guruh tarbiyachisi

Annotatsiya: *Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini, u nikoh va qon – qarindoshlikka asoslanishi hamda jamiyat va davlat muxofazasida bo'lish huquqiga ega, shuningdek, jamiyat va davlat oilani, otalik, onalik va bolalikni himoya qiladi va oilaviy munosabatlarga umuminsoniy va milliy qadriyatlar joriy etilishini ta'minlaydi.*

Kalit so`zlar: *Oila, jamiyat, oilaviy munosabatlar, milliy qadriyatlar, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, maktabgacha ta'lim, ota ona*

IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF COOPERATION WITH THE
FAMILY IN THE EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN

Annotation: *The family is the basic unit of society and is entitled to protection by society and the State.*

Keywords: *Family, society, family relations, national values, economic, social, political, preschool education, parents*

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОТРУДНИЧЕСТВА С СЕМЬЕЙ
В ОБРАЗОВАНИИ ДОШКОЛЬНЫХ ДЕТЕЙ

Аннотация: *Семья является основной ячейкой общества и имеет право на защиту со стороны общества и государства.*

Ключевые слова: *Семья, общество, семейные отношения, национальные ценности, экономические, социальные, политические, дошкольное образование, родители.*

Har qanday jamiyat taraqqiyotida oilalarning, oilalar mustahkamligining o'rni beqiyosdir. Chunki tirik organizmning salomatligi uni tashkil qiluvchi har bir xujayraning sog'lomligiga bog'liq bo'lganidek, butun organizm o'z faoliyatini maqsadga muvofiq amalga oshirishda har bir xujayraning munosib o'rni bo'lganidek, oila ham davlat, jamiyat deb atalgan butun bir organizmni tashkil etuvchi xujayradir. Har bir oilaning sog'lom bo'lishi, ularda ijobjiy psixologik iqlimning hukm surishi, mana shu muhitda dunyoga kelib shaxs sifatida shakllanib, so'ng o'zi yashayotgan davlatning fuqarosi sifatida o'z

davlatining iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti taraqqiyotini ta'minlovchi, hal qiluvchi omil bo'lgan inson kamolotida oilaning tutgan o'rni beqiyosdir.

Demak, oilalarning mustahkamligi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy xavfsizligini, uning ravnaqi, taraqqiyotini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Hozirgi vaqtda jamiyatimiz istiqbollari uchun jiddiy xavf tug'dirayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ichki va tashqi omillarning taqdiri ortib borayotgan ayni vaqtda oilalar mustahkamligini ta'minlash va bu masalani to'g'ri hal etilishining asosiy yo'li bo'l mish yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi hech kechiktirib bo'l maydigan, sustkashlikka yo'l qo'yib bo'l maydigan, o'ta jiddiy yondoshishlarni talab etuvchi davlat, hukumat miqyosidagi dolzARB masaladir.

Insonparvar huquqiy davlatda mavjud bo'lgan oilaga quyidagicha ta'rif mavjud: “Oila jamiyatning tabiiy va asosiy bo'gini bo'lib, yuridik ma'noda nikox, qarindoshlik, farzandlikka olish yoki boshqa shakllarda bolalarni doimiy tarbiyaga olishdan kelib chiqadigan tegishli huquq va majburiyatlar bilan bog'langan shaxslar doirasidan iborat bo'lgan milliy mustaqillik mafkurasiga, umuminsoniy qadriyatlar va sharqona an'analarga asoslangan oilaviy munosabatlarni rivojlantirib, uni mustahkamlashga qaratilgan fuqarolar ishtirokidan iboratdir”. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini, u nikoh va qon – qarindoshlikka asoslanishi hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega, shuningdek, jamiyat va davlat oilani, otalik, onalik va bolalikni himoya qiladi va oilaviy munosabatlarga umuminsoniy va milliy qadriyatlar joriy etilishini ta'minlaydi.

Oilada bolalar tarbiyasida ota – bobolar, momolardan o'tgan yaxshi udum, odamlar mavjud. Pedagogika fanlari doktori professor M.Islomova oilaning quyidagi jihatlarini alohida ajratib ko'rsatgan:

- Birinchidan, oila o'ziga xos va takrorlanmas ta'sirga ega;
- Ikkinchidan, oila uchun o'ziga xos “ko'zgu” bo'lib, ota – onaning shaxsiy namunasi, ibrati bola tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi;
- Uchinchidan, oila sharoitida bolalarda o'zgalarga nisbatan hamdardlik tuyg'ulari ham tarbiyalanadi;
- Beshinchidan, oiladagi maishiy turmushda bolaning ishtirok etishi ham axloqiy tarbiyaning muhim omili sanaladi;
- Oltinchidan, oila er – xotinlik, ota – onalik vazifalarini aks ettiradi. Ota – onaning bir – biriga bo'lgan muhabbati bolaga ta'sir ko'rsatadigan asosiy tarbiyaviy omillardan biriga aylanish mumkin.

Demak, oila – tarbiyaviy jamoa va hech kim hech qanday holatda oilaning vazifasini bajara olmaydi.

Oila hayoti ko'p tomonlamali munosabatlar bilan tavsiflanadi; ijtimoiy – biologik, xo'jalik – iqtisodiy, axloqiy, psixologik. Oila rivojining har bir bosqichi bir funksiyaning tugashi, boshqasining paydo bo'lishi, uning a'zolarining ijtimoiy faoliyatining o'sib borish ko'lami va tavsifi bilan bog'liq. V.A.Slastenin, I.F.Isaev, Ye.N.Isaevlarning fikricha oila jamiyat va odamlarga munosabati bo'yicha muhim ijtimoiy ahamiyatga ega funksiyalarni bajaradi. Jamiyatga munosabati bo'yicha oilaning vazifalari quyidagilarda aks etadi:

- Aholining tabiiy ko'payishi. Avlodlarning almashinuvi uchun davlat tomonidan belgilangan doirada bolalar soni muvofiq bo'lishi zarur.

- Tarbiyaviy vazifasi – bilim, ko'nikma va malakalar, me'yorlar, qadriyatlar, ma'naviy boyliklarni uzatish.

- Ishlab chiqaruvchi – xo'jalik. Sotsiologlarning ko'rsatishicha oilaning oila ishlaridan to'liq ajralishlari uchun qo'shimcha 40 – 45 mln odam talab etiladi.

- Bo'sh vaqtini tashkil etish.

Insonga munosabat bo'yicha oilaning vazifalari quyidagicha.

- Er – xotinlik vazifasi. Er – xotinlar – eng yaqin kishilar, ular o'zaro bir – birini to'ldiradi, bir – biridan ruhiy madad oladi.

- Ota – onalik vazifasi. Oila qariganda ota – onalarning hayotini bezagi uchun zarur bo'lgan ishtiyoqni ta'minlaydi.

- Turmushini yo'lga qo'yish.

Bundan tashqari pedagogik – psixologik adabiyotlarda hozirgi zamon oilasining quyidagi vazifalari ajratib ko'rsatilgan: iqtisodiy, ijtimoiy, reproduktiv, tarbiyaviy, kreativ, kommunikativ, regulyativ, feliotsiotologik va boshqalar.

Oilaning iqtisodiy funksiyasi uning asosiy funksiyalaridan biri bo'lib, oila byudjetini to'g'ri taqsimlash, oilada o'sib – ulg'ayotgan bolalarni tejamkorlikka, tadbirkorlikka o'rgatishni nazarda tutadi.

Bolalarni shaxs sifatida kamol topishlarida oila bilan bir qatorda maktabgacha ta'lim tashkiloti ham ish olib boradi. Maktabgacha ta'lim bola sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim bola olti

– yetti yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Maktabgacha tarbiyani rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;

- maktabgacha ta’limning samarali psixologik – pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;

- bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta’minlash;

- zamonaviy o’quv – uslubiy qo’llanmalar, texnik vositalar, o’yinchoqlar va o’yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;

- maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy – tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma’naviy – axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart – sharoitlar yaratish;

- maktabgacha ta’lim tashkilotlarining har xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha tarbiyaning barcha masalalari bo'yicha malakali konsultatsiya xizmati ko'rsatish imkoniyatini yaratish;

- maktabgacha tarbiya va sog'lomlashtirish tashkilotlari tarmog'ini qo'llab – quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish.

Yuqorida fikrlardan kelib chiqib oilaning tarbiyaviy funksiyasi haqida shunday xulosalarga kelish mumkin:

- Oilaning bolaga ta’siri boshqa har qanday tarbiyaviy harakatlardan kuchli;

- Oilada shunday sifatlar shakllanadiki, oiladan tashqari hech qayerda bunday sifatlar shakllanishi mumkin emas;

- Oila shaxs ijtimoiylashuvini amalga oshiradi. Oiladan jamiyat a’zolari yetishib chiqadi;

- Oila an'analarining davomiyligini ta’minlaydi;

- Oilaning muhim ijtimoiy funksiyasi fuqaro, vatanparvar, bo’lg’usi oila boshlig’i, jamiyatning qonunga rioya qiluvchisini tarbiyalashda aks etadi;

Oila kasb tanlashga muhim ta’sir ko’rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Daminov M., T.Adambekova. O“yin mashg“ulotlari. T.,2013 y.
2. Loginova V.I., P.G.Samorukovalar taxriri ostida «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi» T., 2016 y.
3. Nishanova Z.T, Alimova T, «Bolalar psixologiyasi va uni o“qitish metodikasi» T, 2012 yil
4. Norbosheva M., Bolalar Psixologiyasi. T., 2012 yil

5. Nurkeldieva D. A. va boshqalar “Barmoqlar mashqi va logopedik o‘yinlar”. T., 2017 y.
6. Xasanboeva O.U va boshqalar. «Maktabgacha ta’lim pedagogika». T., «Ilm ziyo» 2016.
7. <http://www.kun.uz> – O‘zbekiston va jahon yangiliklari, eng so‘nggi xabarlar sayti.
8. <http://www.ziyonet.uz/>
9. <http://www.istedod.uz/>
10. <http://www.pedagog.uz/>
11. <http://www.google.uz/>